

XORAZM YOG‘OCH O‘YMAKORLIK SAN‘ATI. “ICHAN-QAL’A” DARVOZALARI TIMSOLIDA

Matkarimova Nargiza Botirovna

“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi katta ilmiy xodimi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yog‘och o‘ymakorligi san‘ati haqida, uning Xorazmda rivoj topishi va uslubi to‘g‘risida “Ichan-Qal’a darvoza va eshiklari asosida qisqacha ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Toshhovli, Toshkent, Xiva, Qo‘qon, Farg‘ona, Buxoro, Ota Polvonov, Bog‘bek Abdurahmonov, Bog‘cha darvoza, Ota darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza.

KHORAZM WOOD CARVING ART. IN THE REPRESENTATION OF THE GATES OF "ICHAN-KAL’A".

ABSTRACT

This article provides brief information about the art of wood carving, its development and style in Khorezm, based on the gates and doors of the Inner Castle.

Keywords: Taskhovli, Tashkent, Khiva, Kokan, Fergana, Bukhara, Ota Polvanov, Bogbek Abdurahmanov, Bogcha gate, Ota gate, Polvan gate, Tosh gate.

Yog‘och o‘ymakorligi — o‘ymakorlik turi, badiiy hunarmandchilikning qadimgi va keng tarqalgan sohasi hisoblanadi. Yog‘ochni kesib, o‘yib, chizib, zaminni teshib naqsh, bo‘rtma shakllar hosil qilib, yog‘och taxtacha va bo‘laklarini birbiriga ulab, yopishtirib (asosan panjaradya) handasiy shakllar, o‘simliksimon tasvirlar, islmiy naqshlar hosil qilinadi. Ustalar naqshni bezatiladigan sirtga axta vositasida tushiradi, ustidan naqsh chiziqlari chizib chiqiladi, so‘ng asbob (iskana)lar yordamida o‘yiladi. O‘yishda turli usullar (pargari, bag‘dodi) keng qo‘llaniladi. Yog‘och o‘ymakorligi ko‘p mehnat talab qiladigan soha, unda O‘zbekistonda o‘sadigan mahalliy daraxtlar (qayrag‘och, archa, yongoq, tut, o‘rik, chinor, tol, terak va boshqalar) dan foydalaniladi. O‘ymakor ustalar daraxt yog‘ochlarining xususiyatlarini yaxshi bilishgan (daraxt yog‘ochlarining quyosh nuri ko‘p tushgan tomoni pishiq, zich tolali bo‘ladi). Yog‘ochlar 6 oydan 1 yilgacha suv (hovuzlar)da saqlanadi, soyada quritiladi. Naqsh mujassamotida girih, islmiy naqshlar keng ishlatiladi, mustaqil ravishda girih kamdan kam hollarda qo‘llaniladi; girih va islmiy naqshlar

uyg'unlashtirilib, rangbarang jozibali mujassamotlar, namoyonlar yaratiladi. Bezak (naqshlar) yaratishda pargardan ko'proq foydalanilishi tufayli naqshlar pargari deb ataladi. Yog'och o'ymakorligi qadimdan taraqqiy etgan. Qadimgi Sharqda, antik dunyo me'morligida keng tarqalgan, Yevropa, Osiyo mamlakatlarida xilma-xil uslublari vujudga kelgan. O'zbekiston hududida ham qadimdan me'morchilikda, ro'zg'or buyumlarida ko'p qo'llanilgan. Movarounnahrda islom dini tarqalguniga qadar yog'och sanamlar tayyorlash rivoj topgan.

XIX asrda Yog'och o'ymakorligida Xorazm uslubi yuksakka ko'tarilgani Xivadagi Toshhovli ayvonlari, xonalaridagi ustunlarning kallagi, boshalariga ishlangan muqarnaslarda, eshiklarning bezaklarida ko'zga tashlanadi. O'zbekiston xududida o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turuvchi Toshkent, Xiva, Qo'qon, Farg'ona, Buxoro yog'och o'ymakorligi shakllangan.

Xivada mahobatli yog'och o'ymakorligi keng tarqalgan, naqshning maydaligi, zaminning kamligi, o'ynoqiligi bilan ajralib turadi, bu yerlik ustalar yog'ochning tabiiy rangini saqlab qolganlar, bo'yamaganlar.

XIX asr boshlarida Xiva xonligi taxtiga Qo'ng'iro't sulolasi vakillari kelganlaridan keyin Xiva shahrini qayta qurish ishlari boshlanib ketdi va shaharda bir talay yangi inshootlar barpo qilindi. Xiva xonlari va amaldorlari tomonidan qurilgan binolarni Xorazmning yog'och o'ymakor ustalari o'zlarining chiroyli, ulug'vor ustunlari va bejirim darvoza hamda eshiklar, panjaralari bilan bezaganlar. Bu san'at asarlarini yaratgan ustalar o'z davrida nomlari doston bo'lgan insonlar bo'lib, ularning ishlarini hozirda farzandlari hamda shogirdlari davom qildirmoqdalar. XIX asrda yaratilgan me'moriy inshootlardagi san'at asarlarida quyidagi yog'och o'ymakor ustalarning ismlari har zamonda islimiy naqshlar orasida uchrab turadi.

Mashhur xalq ustasi koshinpaz, naqqosh Abdulla jin Shayxlar qishlog'idan, Masharif naqqosh Mevaston mahallasidan, Matkarim naqqosh, Momit o'rachi va o'g'illari Bolta o'rachi, Xo'ja o'rachi, Abdurahmon usta Matkarim usta o'g'li (Sapo Bog'bekovni bobosi), Ota Polvonov, Bog'bek Abdurahmonov kabi ustalar o'z hunarlari ila xon va uning amaldorlari tomonidan qurilgan inshootlardagi darvoza, eshik va ustunlarni qalb qo'rlari ila yaratganlar. Qadim Xorazmda har bir usta yog'och o'ymakorligining ma'lum bir sohasi bo'yicha ijod qilgan. Masalan: – mashhur ustalar avlodidan bo'lgan Safo Bog'bekov, otasi Bog'bek Abdurahmonov, bobosi Abdurahmon Matkarimovlar faqat qo'shtabaqali o'yma darvoza va eshiklar ishlash bilan shug'ullanganlar, ustalardan Momit o'rachi va uning o'g'illari Bolta, Xo'ja o'rachilar faqat naqshinkor ustunlar ishlaganlar, Xivaning mashhur xalq ustasi Ota Polvonov ko'pincha o'ymakor ustun ishlab, ayrim vaqtlardagina qo'shtabaqali eshiklar yasagan, Shayxlar qishlog'ida yashagan mashhur xalq ustasi Abdulla jin bir vaqtda o'ymakor ustunlar uchun tut va gujum daraxtlaridan ustun tagliklari hamda

koshinpazlik, naqqoshlik san'ati bilan shug'ullangan. Yog'och o'ymakorligi bilan shug'ullanadigan ustalar naqqoshlar bilan hamkorlik qilib takrorlanmas san'at asarlarini yaratganlar.

Ichan Qal'aning har tomonida darvozaxona inshootlari joylashgan edi. Shaharga kirish uchun g'arbda Ko'n arka qal'asi yonidagi Ota darvozasidan, shimoldan kirish uchun esa Bog'cha darvozasidan, sharqda esa Polvon darvozasidan, Janubda esa Tosh darvozasidan o'tish kerak edi.

G'arbiy Ota darvozasi Ichan Qal'aning asosiy darvozasi hisoblangan. Uning balandligi 10 metrni, kengligi esa 4 metrni tashkil etgan. Birinchi bor darvozani 1842-yilda qurganlar. 1920-yilda esa u vayron etilgan, ammo yarim asr o'tganidan so'ng uni qayta tiklaganlar. Uning o'ng tomonida Muhammad Aminxon madrasasi joylashgan.

Shimoliy Bog'cha darvoza balandligi 8,5 metr bo'lgan simmetrik inshootdir. Janubiy burchak minoralaridan tepaga olib boruvchi zinapoyalar ko'tarilgan.

Sharqiy Polvon darvozasining nomi xorazmliklarni asirlikdan qutqargan afsonaviy Pahlavon Mahmudga bag'ishlab berilgan. Xivaliklar uni o'zlarining homiysi deb hisoblashadi. Darvoza arksimon peshtoq shakliga ega va u yer odamlarning qatl etilganligi bilan mashhur. Shuning uchun xivaliklar uni qatl darvozasi deb ham atashadi.

Janubiy Tosh darvozasi 1830-yilda qurilgan bo'lib uning balandligi 9 metrni tashkil qiladi. O'sha davrda Xivaning hukmdori Allaqulixon edi. Shahar aholisidan tashqari darvozadan yuklar ortilgan tuyalarni ham o'tkazganlar. Shu sababli bu darvoza oldida bojxona joylashgan edi. Ular mollarni (tovarlarni) ko'rikdan o'tkazishar va savdogarlardan boj yig'ishar edi. Aytib o'tish kerakki o'sha davrda Samarqanddan Buxoroga so'ng Xivaga kelish uchun bir oydan ziyodroq vaqt kerak bo'lgan.

Darvoza ortida yo'lovchilarga keng xon saroylari, hashamatli masjidlar hamda maqbaralar va karvon saroylarga ega ertakdagiday go'zal shahar ochilar edi.

"Ichan-Qal'a" hududidagi darvozalarning yog'och o'ymakorligining yorqin namunalari hisoblanadi. Bu darvozalar xar biri alohida shakl va uslub asosida barpo etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Gulomov X. G., Diplomaticheskiye otnosheniya gosudarstv Sredney Azii s Rossiyey v XVIII — pervoy polovine XIX veka. Tashkent, 2005
3. Gulyamov Y.G., Istoriya orosheniya Xorezma s drevneyshikh vremen do nashikh dney. Tashkent. 1957
4. Istoriya Uzbekistana. T.3. T.,1993.
5. Istoriya Uzbekistana v istochnikax. Sostavitel' B. V. Lunin. Tashkent, 1990